




BUXORO VILOYATI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BOSHQARMASI TASARRUFIDAGI VILOYAT BOLALAR KUTUBXONASI

Atoqli va ardoqli shoir

O'zbekiston xalq shoiri Tursunov Mirtemir tavvalludining 115 yilligiga
bag'ishlab

(Uslubiy qo'llanma)



BUXORO -2025

72.3

A. 11

Mazkur uslubiy qo'llanma Mirtemir tavvalludining 115 yilligiga bag'ishlangan bo'lib, shoir hayoti va ijodi adabiy merosi bo'yicha axborot kutubxona muassasalarida o'tkaziladigan masalalar haqida so'z yuritiladi. Uslubiy qo'llanmada maktab kutubxonalarida o'tkaziladigan turli kitobxonlik tadbirlar turkumi tavsiya tarzida berilgan.

Mirtemir (taxallusi; asl ism—sharifi **Tursunov Mirtemir**) (1910.30.5, Turkiston — 1978.25.1, Toshkent) — O‘zbekiston xalq shoiri (1971), o‘zbek she’riyati taraqqiyotida o‘ziga xos o‘rin tutgan shoir. Mirtemir Tursunov 1910-yilning 30-mayda Turkiston shahri yaqinidagi qishlog‘ida tug‘ildi. Eski maktabda ta’lim olgach (1919—1920), Toshkentga kelib, Almaiy nomidagi namuna ish maktabi (1920—1923) va O‘zbek erlar bilim yurtida (1925—1929) tahsil ko‘rgan. 1929-yil Samarqandga borib O‘zbekiston MIK raisi Yo‘ldosh Oxunboboyevning kotibi bo‘lib xizmat qilgan va ayni paytda, Pedakademianing til va adabiyot fakultetida o‘qiy boshlagan. U shu yillarda „Qizil qalam“ adabiy tashkilotining a’zosi sifatida Botu, Oltoy singari „millatchilar“ bilan aloqada bo‘lganligi uchun GPU tomonidan hibsga olingan (1932.8.8.). Qamoqdan ozod bo‘lgach, „Yangi hayot“ gazetasida adabiy xodim (1936), respublika radioqo‘mitasida bosh muharrir (1941). O‘zdavnashrda muharrir (1942), Opera va balet teatrida adabiy emakdosh (1943—1944), Yozuvchilar uyushmasida bo‘lim mudiri va maslahatchi (1957—1964), badiiy adabiyot nashriyotida muharrir (1965—1966) lavozimlarida xizmat qilgan.

She’riy to‘plamlari

Mirtemirning „Shu'lalar qo‘ynida“ (1928), „Zafar“ (1929), „Qaynashlar“ (1930), „Kommuna“ (1931), „Tong“ (1932), „Kipriklarim“, „Yodgorlik“ (1978) va boshqa she’riy to‘plamlarida intim va ijtimoiy lirikaning sara namunalari o‘rin olgan. Shoir qalamiga mansub „Dilkusho“, „Suv qizi“, „Oysanamning to‘yida“, „Surat“ (1957) dostonlari va „Qoraqalroq daftari“ she’riy turkumi Mirtemir tasvir imkoniyatlari nechog‘lik keng ekanini ko‘rsatadi.

Dostonlari

30-yillar o‘zbek she’riyatida doston janri katta mavqe kasb etadi. Mirtemir ham shu davrda „Barot“ (1930), „Xidir“ (1932), „Dilkusho“, „Suv qizi“ (1937), „Oysanamning to‘yida“ (1938), „Qo‘zi“ (1939) kabi dostonlarni yozadi va ularning aksarida oddiy mehnat axli vakillari obrazini yaratadi. Umuman, Mirtemirning she’r va dostonlariga xos xususiyat shundaki, u oddiy kishilar hayoti va mehnatida „she’riyatbop“ jihatlarni, ular ruhiy olamidagi go‘zallik jilvalarini o‘ziga xos noziklik va zakiylik bilan ko‘radi va aks ettiradi. Bu mirtemirona fazilat shoir ijodining urushdan keyingi davrida, ayniqsa, yorqin ko‘rinadi.

Ikkinci jahon urushidan keyingi yillardagi adabiy siyosat natijasida Mirtemirga ijod etish va yozgan asarlarini e’lon qilish imkonи berilmagan. Natijada u tarjima va tahrir ishlari bilan shug‘ullanishga majbur bo‘lgan. Qoraqalpoq she’riyatidan qilgan tarjimalari va „Qaraqalpoq daftari“ (1959) she’riy turkumining katta muvaffaqiyat qozinishi Mirtemirning „erkin“ ijodkorlar safiga qaytishi va ijodiy yasharishiga sababchi bo‘ldi. „Qoraqalpoq daftari“da (1957) namoyon bo‘lgan xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik va hamkorlik g‘oyalari shoirning qozoq, qirg‘iz va turkman diyorlariga qilgan safarlari ta’sirida yozilgan she’rlarida katta mahorat bilan davom ettirildi. Mirtemirning „Qoraqalpoq daftari“ turkumidan o‘rin olgan „Surat“ lirik qissasi esa 60—70-yillarda o‘zbek she’riyatida doston janriga e’tiborning kuchayishi va lirik doston janrining kamol topishiga katta ta’sir ko‘rsatgan.

She’rlari

Mirtemirning 60–70-yillarda yaratgan aksar she’rlari 20–asr o‘zbek she’riyatining tom ma’nodagi durdonalaridir. U shu davrda she’riy texnikani mukammal egallagan shoir sifatidagina emas, balki tarix va Vatan tuyg‘ulari bilan yashagan, shu muqaddas tuyg‘ularni yonar so‘z bilan ifodalagan shoir sifatida ham shuhrat qozondi. Mirtemir oddiy mehnat axliga ruhan yaqin, uning tabiatini, maishiy xayotini, tilining kamalak ranglarini, dilidagi orzu va armonlarini yaxshi bilgan, inson qalbidagi ruhiy kolliziyalarni teran his qilgan va tasvirlagan shoirdir. Mirtemirning chin ma’noda xalq shoiri, milliy shoir bo‘lganligi uning, ayniqsa, „Betobligimda“, „Bitta o‘zim bilaman“, „Toshbu“, „Bulut“, „Onaginam“, „Shudring“, „Barqut“, „Yali-yali“, „Ratti“, „Armon“, „Chirildoq“, „Sutdek oydin“, „Men kelgum“, „Hayda“, „Ona yurtim“, „Ona tilim“, „Ko‘klamda“, „Pattining hasratlari“ singari o‘zbek ayollariga xos mehr-muhabbat, or-nomus, malohat, sabr-toqat va mehnatsevarlik fazilatlari kuylangan she’rlarida o‘z tajassumini topgan. Mirtemir bu va boshqa she’rlari bilan o‘zbek she’riyatiga xos xalqchillik ruhini behad darajada oshirdi. Ayni paytda Mirtemir she’rlari syujetliligi, tasvir etilayotgan zamon va makonning aniqligi, lirk qahramon ruhiy olaming yorqinligi va bokiraligi bilan ajralib turadi.

Qo‘shiqlari

Mirtemir she’riy ijodining muhim bir qismini qo‘shiqlar tashkil etadi. Shoir Katta Farg‘ona kanali qurilishiga bag‘ishlangan „Yali-yali“, shuningdek, „Bog‘ ko‘cha“, „Bir go‘zal“, „Qaro ko‘zli“, „O‘ynasin“, „Boqishi“, „Ustina“ singari qo‘shiqlar bilan o‘zbek qo‘shiqchilik san’ati ravnaqiga beباho hissa qo‘shdi. Shu bilan birga, Mirtemir bir qancha publitsistik va adabiy-tanqidiy maqolalar muallifi. Mirtemir o‘tgan asrning 60–yillarida o‘zbek she’riyatiga kirib kelgan talaygina yoshlarga ustozlik qilib, o‘zining adabiy mifikabini yaratdi.

Tarjimalari

Badiiy tarjima Mirtemirning ijodiy faoliyatida katta o‘rin egallaydi. U Abay, Mahtumquli, Berdaq she’rlaridan tashqari, qirg‘iz xalqining „Manas“ eposini (hamkorlikda), Shota Rustavelining „Yo‘lbars“ terisini yopingan pahlavon“ (hamkorlikda), Aleksandr Pushkinning „Ruslan va Lyudmila“, „Oyimqiz qishloqi qiz“, M. Lermontovning „Ismoilbek“, „Savdogar Kalashnikov haqida qissa“, N.A.Nekrasovning „Rusiyada kim yaxshi yashaydi“ kabi doston, qissa va ertaklarini, G. Geyne, A. M. Gorkiy, Pablo Neruda, Nozim Hikmat, Samad Vurg‘un va boshqalarning she’rlarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan. „Karmen“ va „Ulug‘bek“ operalari, „Natalka-poltavka“, „Bayadera“, „Keto va Kote“ singari musiqali dramalar Mirtemir tarjimasida o‘zbek tilida sahnalashtirilgan.

Mukofotlari

Mirtemir Hamza nomidagi O‘zbekiston Davlat mukofoti (1979), Berdaq nomidagi Qoraqalpog‘iston Davlat mukofoti (1977) laureati. „Buyuk xizmatlari uchun“ ordeni bilan mukofotlangan (2002). Toshkentdagi ko‘cha va Andijon viloyati, Bo‘z tumanidagi mifikablardan biri Mirtemir nomi bilan atalgan. Shoir tug‘ilgan Eski Iqon qishlog‘ida Mirtemir uy–muzeyi barpo etilgan.

- Naim Karimov.

Asarlari

- 4 jildlik. Toshkent, G‘. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1980–1983.
Adabiyot

- Mirvaliev S. O‘zbek adiblari. –T.: „Yozuvchi“, 2000.
- Karimov N. va boshqalar 20 asr o‘zbek adabiyoti tarixi. –T.: „O‘qituvchi“, 1999.
- Azizov Q. Mirtemir. Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi O‘dabiyot va san’at nashriyoti, 1969.
- Halilov T. Mirtemir mahorati. Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1980.
- G‘afurov I. Ona yurt kuychisi. Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1970.

Qishlog‘im

Qishlog‘im, nechog‘liq suluvsan bugun,
Yashilga burkanib, yashnabsan shuncha.
Nechog‘liq to‘kissan, nechog‘liq to‘kin,
Meni o‘rab oldi xayol, tushuncha:

Qay qo‘raga kirsang – eshigi ochiq,
Bir nima tatiysan, qo‘ymas aslo och.
Qoraqumg‘on qaynar, yozilur chochiq,
Zog‘orami, so‘kmi, yovg‘on yo umoch.

Borini ayamas, barini qo‘yar,
Yupqami yo go‘ja, tolqon, qo‘g‘irmoch,
Qurutmi yo jiyda – o‘rtaga uyar,
Juda bo‘lmaganda qatig‘-u ko‘moch.

Agar so‘ygan bo‘lsa kecha bo‘rdoqi,
Qozonda qovurdoq, o‘rtada ko‘za.
Danak, qovunqoqi, suzgun ko‘z soqi,
Yo qimiz suzilur, yo achchiq bo‘za.

Agar so‘ygan bo‘lsa uloq yo qo‘zi,
O‘ho‘, no‘xat sho‘rva yoki kulchatoy.
Juda qashshoq bo‘lsa – bor yaxshi so‘zi,
Shundoq yaxshi so‘zki, go‘yo sarimoy.

... Yoramazon aytar edik ba’zi kez,
Shom payti, chang-tutun qishloq ko‘chasi,
Pul oshimi, to‘qoch – olib chiqar tez,
Tonggacha jaranglar oydin kechasi.

Kelin yo‘lin to‘sib machit oldida,
Aylanishar edik yoqib alanga.
Hammasi qolarkan go‘dak yodida,
Boshdan sochilguvchi turshag-u tanga.

Qish kuni to‘yu bazm yo yayov uloq,
Yo nargi qishloqdan nogahon qorxat.
Esimda go‘daklik – unutilmas choq,
O‘sha kunlarimdan qalbimda bor xat...

Qishlog‘im, tag‘in ham suluvsan bugun,
Tag‘in ham suyuksan, mening ardoqlim.
Nechog‘liq to‘kissan, nechog‘liq to‘kin,
Dunyo turguncha tur, qo‘li qadoqlim.

Ona tilim

*Ona tilim — jon-u dilim,
Ko ‘ksimda tutgan ulamom.
Shoir bo ‘lib tug ‘ilmaganman,
Ammo aytmay tura olmayman.*

*Tilim mening — el-u yurtim,
Ajdodimdan qolgan meros.
Tarixim ham, taqdirim ham,
Tilimda bor siru izhos.*

O‘zbekiston

*Go ‘zal elimsan, O‘zbekiston,
Bo ‘stonimsan, O‘zbekiston.
Qalbim ichra yurting naqsh,
Jonim, tanam — senga bag‘ish.*

Qasamyod (*parcha*)

*Ko ‘zlarim to ‘kmasa yosh,
Ko ‘nglimda o ‘t bo ‘lmasa,
Yuragimda so ‘nsa g ‘am,
Shu she ‘rim ham bo ‘lmasin!*

Quyosh bilan suhbatdan (*parcha*)

*Ey Quyosh, sen tinu-toza,
Sen ham haqqa yetmak istar.
Men ham senga o‘xshash bo‘lib,
Zulmga qarshi aytmoq istar.*

Mirtemir she’rlari haqida

Mirtemir she’rlari o‘zbek she’riyatini har jihatdan boyitgan mazmun an teran va badiiy yuksak namunalardir. Ularda tabiat va inson hayotining xilma-xil ko‘rinishlari, taassurot va kechinmalarini g‘oyat topqirlik va noziklik bilan aks ettiriladi. Shu ma’noda muxlislar mirtemirni lirik shoir deb biladilar va qadrlaydilar.

Mirtemir

Uning tabiat hodisalarini kuzatish orqali teran falsafiy xulosalar, go‘zal qiyoslar, betakror obrazlar yaratish mahorati XX asrning 50–60-yillarida yozgan «bulut» va «Shudring» nomli she’rlarida yaqqol sezildi.

Bulut – bu yomg‘ir darakchisi. osmonda bulut paydo bo‘lishi bilan barchaning xayolidan yomg‘ir yog‘adi, degan fikr o‘tadi. Shunga yarasha taraddud va ehtiyyot choralarini ko‘riladi. albatta, bemavrid yomg‘ir yog‘sa, kayfiyat buziladi, ko‘ngil g‘ash tortadi. bu, odatda, qop-qora bulut butun osmonni qoplab, kunni tundek qorong‘ilikka chulg‘agan damlarda bo‘ladi. ammo shoirning qo‘liga qalam tutqizgan bu tabiat hodisasi yorug‘lik, to‘kinlik belgisi. pag‘a-pag‘a oq bulut, odatda, bahor faslida yog‘adigan yomg‘irlarni buvalarimiz «obirahmat» deydilar. buning ma’nosi shuki, ko‘klam yomg‘iri tabiatni yashnatib, dovdaraxtga, o‘t-o‘langa kuchqudrat, quvvat ato etadi. Ekilgan ekinlarning barq urib yashnashi, daraxtlarning mo‘l-ko‘l meva berishi uchun qiyg‘os gullashiga sabab bo‘ladi. bu o‘z navbatida xonadonlarga rizq-u nasiba, to‘kinlik kirishidan belgi. Shuning uchun ham shoir bu bulutni sutga, barqutga o‘xshatadi. Uning sharofatidan paydo bo‘lajak qutbaraka, tog‘-tog‘ uylajak oppoq paxtani orzulab, bulutga murojaat etadi. momaqaldiroq guldurab, goh to‘lib-toshib sel bo‘lib kelsada, yomg‘ir yog‘sin, yog‘may o‘tmasin, deydi.

Ko‘k yuzida dam qaldiriq, dam sukut,
Yog‘may o‘tma, pag‘a bulut – oq bulut!
Yog‘ib o‘tsang – tizza bo‘yi o‘t bo‘lur,
O‘t bo‘lur, ham sut bo‘lur, ham qut bo‘lur.

E’tibor bering, qanday quyma satrlar! Shoir «o‘t», «sut», «qut» so‘zlarini marjondek bir qatorga tizib, ham kuchli ma’no, ham yoqimli ohangdoshlikni ta’min etadi. o‘quvchi qalbiga tabiatni sevishdan zavq ola bilishdek go‘zal tuyg‘ularni joylaydi.

Mirtemirning «Shudring» she'ridan ham kitobxon xuddi shunday zavq tuyadi. e'tiborli tomoni shundaki, sarlavhadan boshqa she'rning biror misrasida shudring so'zini uchratmaymiz. Shoир faqat tasvir, o'xshatish, qiyoslash, jonlangan tasavvurlar orqali tabiatn ing shudring deb nomlangan yana bir bag'oyat nozik va go'zal hodisasini aks ettiradi. bu she'r ham bolalik xotiralari bilan hayotiy kuzatishlarning uyg'unligi asosiga qurilgan. Lirik qahramon – yosh, balki siz qatori yigitcha, chor atrofda bahoriy iliqlik kezgan nahor pallasi – erta tongda qishlog'idagi jar ustiga qurilgan osma ko'priklardan o'tib, o't-o'lanylari toptalmagan qirlarga oshiqadi. Undagi ko'katlar bargida, nihollar kurtagida, g'o'za yaproqlarida dur-marvarid misol yaltirab, jilvalanib turgan shud ringni kuzatadi. Uning jilvalaridan lol bo'lib, yana boshqa o'xsha tish lar topadi. Xususan, kelinlar taqinchog'iga, uzuk ko'zla riga, ko'zmun choqqa, qizlarning suzilib turgan ko'zlariga qiyoslaydi. Va nihoyat, juda o'ziga xos ramzlarga ishora qilib, shunday beqiyos obraz yaratadi:

Yo'q, bu giryon ko'zlarning yarqiroq zamzamasi,
Kechasi onam tag'in yig'labdi-da chamasi...

Shoir fikrni rivojlantirib, shudringni ko'z yoshlarga o'xshatadi. ko'z yoshlari dona-dona bo'lib to'kilganda, yaltirab ketadi. odatda, kimnidir intiqlik bilan kutayotgan odamning ko'zlar to'rt bo'ladi. kuta-kuta toqati toq bo'lgach, yo sog'inch, yo o'kinishidan ma'yus tortib, dona-dona yosh to'kadi. Shudring ana shu ko'z yoshiga o'xshaydi. Shoир nazarida bunday intizorlikdan ko'z yosh to'kuvchi kimsa bu – ona. onaning munis-mushfiq mehribonligini nazarda tutib tabiatni ham ona deymiz.

Shudring ana shu ma'noda ona, ya'ni tabiatning ko'z yoshi degan nihoyatda nozik bir o'xshatish topadi shoир. bu juda o'ziga xos, o'ta nafis kuzatish. Go'yoki tabiat ko'z yoshlarini to'kib, barcha dov-daraxt, sabzalarning chang-u gardlarini yuvadi, g'uborlaridan forig' etadi.

Odatda, xayolot dunyosi keng, butun olamga o'z nigohi bilan qaray oladigan va so'z vositasida uni aks ettira biladigan mahoratli shoirlarni so'z musavvirlari deymiz. mirtemir ana shunday san'atkor shoир, haqiqiy so'z ustasi edi. Uning ijodiy merosida bunday she'rlar juda ko'p. «to'rg'ay» nomli mashhur she'r ham fikrimizning yaqqol isbotidir.

Shoir sayroqi to'rg'ay misolida o'z hayoti va ijodining butun mazmunini belgilagan bir haqiqatni ramziy ifodalagandek tuyuladi. Ya'ni tongni sevish – bu yorug'likni sevish, unga intilish demak. Tong hayot nishonasi, ezgu orzularning amalga oshmog'i uchun umid bag'ishlovchi paytdir. To'rg'ay, ba'zi kishilar nazdida, go'yoki tong saharlab barchan ing halovatini buzib, betinim sayraydigan yengiltak javroqi qush. lekin u keng dalalarning moviy osmonida charx urib, o'ynab sayrar ekan, sholikor-u chorvadorni, bog'bon-u paxtakorni – barcha mehnat ahlini uyg'otadi, mehnatga, yaratuvchilikka chorlaydi. G'aflatda qolmaslikka, yorug' daqiqalarni boy bermay, bunyodkorlik bilan mashg'ul bo'lishga undaydi. Shuning uchun ham uni – tongni ardoqlaguvchi, hayotni maqttaguvchi bir qushni ezzulik darakchisi deb biladi shoир. bu shunchaki qushni maqtash, uning bir xislatini namoyish etish emas. balki to'rg'ay misolida shoirning o'ziga va o'z hamkasblariga: «haqiqiy shoир o'z xalqining ovozi bo'lishi, uni ezgu ishlarga chorlashi,

yorug‘ tuyg‘ularni kuylashi kerak», degan murojaatidek tuyuladi. mirtemir butun umri davomida ana shu aqidaga amal qilib yashadi. Xalqimizning to‘y-tantanalarini, eng yaxshi insoniy xislatlarini kuyladi, kishilarimizni ezgu ishlarga ilhomlantirdi, mardlikni, jasoratni, samimiylilikni ulug‘ladi.

Shoir lirik merosida tabiat manzaralari va bolalik xotiralari bilan bog‘l iq she’rlar salmoqli o‘rin egallaydi. Uning o‘zi «baliq ovi» she’rida yozganidek:

Bizning qishloq tog‘ bag‘rida,
Tog‘ bag‘rida – bog‘ bag‘rida.
Etagida chopqillar soy,
Yozda tiniq, kuzda tiniq.

Demak, shoir turkiston shahrining iqon qishlog‘idagi Qoratog‘ etaklarida tug‘ilib o‘sgani, ya’ni tabiatning barcha go‘zalliklaridan bahramand bo‘lganini yodga olarkan, she’rlarida ana shu mavzularning yetakchilik sababini tushuntirgandek bo‘ladi. bu satrlarni o‘qiganda, ko‘z o‘ngingizda aniq bir manzara namoyon bo‘ladi. Tog‘ bag‘ridagi qishloq, atrof daraxtzor, mevali bog‘. Uning etagida sharqirab soy oqmoqda. Soy tabiatning ikki faslida tiniq oqadi – yozda va kuzda. Qishda suv kamayadi yo butkul to‘xtaydi. bahorda esa, ayniqsa, erta bahorda soy to‘lib, loyqalanib oqadi. Xo‘s, muhtaram she’rxon, buning sababini nimada deb o‘ylaysiz? Xuddi kimdir soy boshiga to‘g‘on qurgan-u, uni vaqtivaqt bilan o‘z xohishiga qarab ochadigandek fikr paydo bo‘ladi. aslida tabiatning o‘zi eng oliy mo‘jizadir. har bir hodisada bir sabab va bog‘liqlik bor. Qish sovuq kelib, tog‘-u toshni qor bosganda, hamma yoq muzlab, soy ham to‘xtaydi. bahor kelib, kunlar iliqlasha borgani sari qorlar erib, soy to‘lib oqa boshlaydi. Tog‘ cho‘qqilaridan tushib kelayotgan suv yo‘lidagi butun xor-u xaslarni, qum-u tuproqlarni ham qo‘shib bo‘tana bo‘lib, loyqalanib ketadi. bu holat bahor so‘ngiga qadar davom etib, o‘zan tozalanib bo‘lgach, yoz va kuzda suv tiniqib qoladi. Shoir she’rida aynan shunga ishora qilib, «ko‘klam chog‘i soy butun loy» deya real manzara chizadi va ayni chog‘da shu bo‘tana suvlardan oziqlanib, soy qirg‘oqlari jambil-u yalpiz kabi turli ko‘katlar bilan qoplani- shini tasvirlaydi. So‘ng shoir bolalik xotiralariga o‘tib, o‘zining baliq ovlaganini hikoya qiladi. ko‘klam butun borliqni uyg‘otganidek, to‘lib oqayotgan soyning har yerida bekinib yotgan baliqlarni ham uyg‘otadi go‘yo. Shoirning lirik qahramoni, ya’ni bolalik paytidagi o‘zi, suv bo‘yida baliqlarning suzib, o‘ynoqlashini tomosha qilib o‘tirarkan, biror kattaroq baliqni ushlash ilinjida suvga non ushoqlarini tashlaydi. buni ko‘rib toshlar orasida bekinib yotgan baliqlar suzib keladi. bolaning mo‘ljali ulkan baliqni tutib, buvisiga olib borsa-yu, undan maqtov eshitsa. biroq qo‘liga sira baliq ilinmaydi. Sirg‘alib chiqib ketadi-yu, tutqich bermay qochadi. Shunda bola to‘r tashlab, bitta emas, barchasini ushlab olishni mo‘ljallaydi. Siz ham, aziz o‘quvchi, baliq oviga borgan yoki ko‘l-u daryo bo‘ylarida qarmoq tashlab, jimgina tikilib, xayol surib o‘tirgan odamlarni kuzatgan bo‘lsangiz kerak. Qarmoqqa baliq ilinishi bilan na kiyim-boshi ho‘l bo‘lishini va na qoqilib yiqilishi mumkinligini o‘ylamay o‘ljasiga intilgan ishqibozlarning xatti-harakatlaridan zavqlangan bo‘lsangiz kerak. Shoir ham o‘z boshidan kechirgan shunday manzarani tasvirlar ekan, she’rdan ibratli xulosalar chiqarishga asos beradigan bir fikrni anglatmoqchi bo‘ladi. ya’ni bundan keyin «to‘r tashlasam ham, zo‘r tashlayman» misrasi bilan o‘zini katta orzular va katta ishlarga chog‘lanayotganini bildirib o‘tadi.

Har bir badiiy asar, jumladan, ko‘rib o‘tganimiz mazkur she’r ham ma’lum bir maqsad va g‘oya tashiydi. Shoir tabiat ko‘rinish lari bilan bolalik xotiralarini uyg‘unlikda tasvir etar ekan, o‘quvchiga yorug‘ kayfiyat bag‘ishlash bilan birga uni ulug‘vor niyatlarga ham chorlaydi. Go‘zallikni his etish orqali ma’naviy yuksalishga da’vat etadi.

«Qishlog‘im» she’rida shoir endi kamolotga yetgan, hayotning ulg‘aygan pallasida xotiralarga berilgan bir inson sifatida gavd alanadi.

Esimda go‘zallik – unutilmas choq,
O‘sha kunlarimdan qalbimda bor xat...

Lirik qahramon oradan bir necha o‘n yillar o‘tib, qishlog‘ini ziyorat qilishga kelganida avvalgiday mehmondo‘stlik va bag‘rikenglikning guvohi bo‘ladi. Va beixtiyor «yoramazon aytar» pallalarini qo‘msaydi. bu tuyg‘uni go‘yo o‘quvchi qalbiga ham singdirmoqchi bo‘lib, qishloq hayotining jozibasini anglat uvchi turli tafsilotlarni keltiradi.

O‘zbek qishloqlari hamisha to‘kinlik va saxovat ramzi bo‘lgan. Qishloqqa borgan odam hech qachon e’tiborsiz qolmaydi. mehmonni otaday ulug‘lash, unga bor mehrini berib, ehtirom ko‘rsatish qishloqlarimizda azal-azaldan qolgan udum. har bir xonodon egasi uyiga kirgan mehmonni tansiq taomlar bilan siylashga harakat qiladi, borini dasturxonqa to‘kadi. avvalo, shuni ta’kidlash kerakki, odatda, qishloq uylari qulfl anmaydi. doimo eshik ochiq. Uzoqmi, yaqinmi biror qarindosh, do‘s-t-yor, tanish-bilishlar kelsa, albatta, dasturxon yoziladi. Qishloqda mehmonni siylaganda qanaqa taomlar tortilsa, she’rda bari sanaladi. Zog‘ora-yu so‘k oshi, yovg‘on-u go‘ja, yupqa-yu tolqon, qovurdog‘-u kulchatoy. Juda bo‘lmaganda, qatiq, qurut, jiyda, danag-u qovunqoqi qo‘yadi. mabodo bular ham bo‘lmay qolsa, sariyog‘day yoqadigan yaxshi so‘z bilan qishloq ahli ko‘nglingizni oladi. mana shularni aytar ekan, shoir bolalik davrining betashvish, beg‘ubor, o‘yinqaroq pallal arini yodga oladi:

Qishlog‘im, tag‘in ham suluvsan bugun,
Tag‘in ham suyuksan, mening ardoqlim.
Nechog‘liq to‘kissan, nechog‘liq to‘kin,
Dunyo turguncha tur, qo‘li qadoqlim.

Yuqoridagidek quy ma, mag‘z i to‘q satr lar, bir o‘qishdayoq xotirada o‘rnashib qoladigan qofiy alar, hamohang tovushlar shoir mirtemirn ing naqadar katta iste’dod egasi bo‘lganidan dalolat beradi.

Mirtemirning asarlari haqida umumiylumot

Mirtemir o‘z ijodida **she’r, doston, tarjima, publitsistik maqolalar** yo‘nalishlarida samarali ijod qilgan. Asarlari xalqning og‘riqlari, orzulari, vatanparvarlik va mehnat madhiga bag‘ishlangan.

Mashhur she’rlari:

1. “**Ona tilim**”
— Ona tiliga bo‘lgan mehr va milliy iftixorni ifodalaydi.
2. “**Qasamyod**”
— Haqiqat vaadolat yo‘lida kurashga da’vat bo‘lgan she’r.
3. “**Quyosh bilan suhbat**”
— Erkinlik va zulmga qarshi fikrlar mujassam.
4. “**O‘zbekiston**”
— Vatanni madh etuvchi, xalqona ruhi kuchli she’r.
5. “**Bahor**”
— Tabiat uyg‘onishi orqali yangi hayot, yangilanish g‘oyalari.
6. “**Hayot haqida qo‘shiq**”
— Inson hayotining mazmuni, mehnat va umid haqida.

Dostonlari:

Mirtemir doston janrida ham ijod qilgan, biroq u she’riyati bilan ko‘proq tanilgan.

- “**Temur Malik**” (ba’zilar bu dostonni Mirtemirga bog‘laydi, ammo ko‘proq Hamid Olimjonga tegishli sifatida qaraladi)
- Uning ba’zi tarixiy mavzudagi dostonlari matbuotda alohida e’tirof etilgan.

Tarjimalari:

Mirtemir o‘zbek adabiyotida **tarjima maktabining asoschilaridan** biri hisoblanadi. U bir nechta jahon adabiyotining durdonalarini o‘zbek tiliga o‘girgan:

1. **Shekspir – “Otello”** (drama)
2. **Pushkin – “Mis chavandoz”, “Qor malikasi”**, va boshqa she’rlar
3. **Lermontov – “Demon”**, she’rlar
4. **Mayakovskiy – “Yaxshi!”**, publitsistik ruhdagi she’rlar
5. **Rustaveli – “Yo‘lbars terisini kiyangan pahlavon”** (gruzin epik dostoni)
6. **Nizomiy Ganjaviy – “Layli va Majnun”**, ***“Xamsa”***dan parchalar

Tarjimada Mirtemir **mazmun va shakl uyg‘unligiga katta e’tibor** bergan, obrazlarni xalqona va tushunarli ifoda qilgan.

She’riy to‘plamlari:

1. “**Shu’lalar qo‘ynida**” – 1934-yil
 2. “**She’rlar**” – turli yillarda
 3. “**Tanlangan asarlar**” – vafotidan so‘ng nashr qilingan
 4. “**She’rlar va dostonlar**” – jamlanma ko‘rinishidagi asarlar to‘plami
- **Tiniq til**, xalqona iboralar
 - **Tuyg‘ular bilan fikr uyg‘unligi**
 - **Soddalik va chuqurlik**
 - Vatan, mehnat, erk, xalq taqdiri — **asosiy mavzular**

Mirtemir hayoti va ijodi haqida savol-javoblar

1. Savol: Mirtemirning to‘liq ismi nima?

Javob: Mirtemirning to‘liq ismi Mirtemir Tursunovdir.

2. Savol: Mirtemir qachon va qayerda tug‘ilgan?

Javob: Mirtemir 1910-yil 30-mayda Toshkent viloyatining Olmaliq tumanida tug‘ilgan.

3. Savol: Shoiring ilg’ingiz she’riy to‘plami qanday nomlangan?

Javob: Uning ilk she’riy to‘plami “**Shu'lalar qo'ynida**” deb nomlangan va 1934-yilda nashr etilgan.

4. Savol: Mirtemir qaysi adabiy yo‘nalishga mansub?

Javob: Mirtemir — **sotsialistik realizm** yo‘nalishiga mansub, ammo u o‘z ijodida insoniylik, vatanparvarlik, yuksak ma’naviyat kabi mavzularni chuqr yoritgan.

5. Savol: Mirtemir asarlarining asosiy mavzulari nimalardan iborat?

Javob: Uning asarlarida **Vatanga muhabbat, ozodlik, mehnat, tinchlik, xalqparvarlik va insoniylik** mavzulari yetakchidir.

6. Savol: Mirtemir tarjimon sifatida kimlarning asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan?

Javob: U **Shekspir, Pushkin, Lermontov, Mayakovskiy, Nizomiy, Rustaveli** kabi mashhur adiblarning asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan.

7. Savol: Mirtemirning mashhur she’rlaridan ba’zilari qaysilar?

Javob: “Ona tilim”, “Quyosh bilan suhbat”, “Qasamyod”, “O‘zbekiston”, “Bahor” kabi she’rlari mashhur.

8. Savol: Mirtemirga qanday faxriy unvonlar berilgan?

Javob: U O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi unvoniga sazovor bo‘lgan.

9. Savol: Mirtemir qachon vafot etgan?

Javob: Mirtemir 1978-yil 25-yanvarda vafot etgan.

10. Savol: Mirtemir ijodining o‘zbek adabiyotidagi o‘rni qanday baholanadi?

Javob: Mirtemir o‘zining hayotiy, chuqr mazmunli she’rlari bilan o‘zbek she’riyati rivojiga katta hissa qo‘shtigan. U xalq ruhiyatini ifoda etgan shoir sifatida tan olingan.

11. Savol: Mirtemir qaysi adabiy jurnallar va nashrlarda faoliyat olib borgan?

Javob: U “Sharq yulduzi”, “Guliston”, “Yosh leninchi” (hozirgi “G‘uncha”) kabi jurnallarda ishlagan.

12. Savol: Mirtemir she’riyati qaysi xalq ijodi bilan bog‘liq unsurlarga boy?

Javob: Uning she’riyati o‘zbek xalq og‘zaki ijodi — **maqollar, dostonlar, xalq qo’shiqlari** ruhiga yaqin bo‘lgan.

13. Savol: Mirtemir tarjima qilgan Shekspir asarining nomi nima?

Javob: U Shekspirning “Otello” tragediyasini o‘zbek tiliga tarjima qilgan.

14. Savol: Mirtemir o‘z she’rlarida qanday obrazlar orqali xalq ruhiyatini aks ettirgan?

Javob: U ko‘pincha **dehqon, ishchi, ona, vatan himoyachisi** obrazlarini tasvirlab, xalqning iztirobi va orzularini ifoda etgan.

15. Savol: Mirtemir “Qasamyod” she’rida qanday g‘oyaviy da’vatni ilgari surgan?

Javob: Bu she’rda u adolat, haqiqat, mehnat va vatan oldidagi burchni sadoqat bilan bajarishga **qasamyod** qilgan.

16. Savol: Mirtemirning tarjima ijodida qanday jihatlar kuchli edi?

Javob: U asliyatga sodiq qolgan holda, **o‘zbekcha poetik ruhni saqlagan**, obraz va uslubni mohirlik bilan o‘girgan.

17. Savol: Mirtemir kimlar bilan zamondosh bo‘lgan?

Javob: U G‘afur G‘ulom, Oybek, Hamid Olimjon, Abdulla Qahhor kabi o‘zbek adabiyotining yirik namoyandalari bilan zamondosh bo‘lgan.

18. Savol: Mirtemirning o‘limidan keyin qanday asarlari nashr etilgan?

Javob: Uning vafotidan so‘ng "**Tanlangan asarlar**", "**She’rlar va dostonlar**" to‘plamlari chop etilgan.

19. Savol: Mirtemirning tarjimalari orqali o‘zbek o‘quvchilari kimlarning asarlari bilan tanishgan?

Javob: U orqali o‘zbek o‘quvchilari **Dante, Shekspir, Pushkin, Lermontov, Nizomiy** kabi dunyo adiblarining asarlari bilan tanishgan.

20. Savol: Mirtemir hayoti davomida qanday sinovlarga duch kelgan?

Javob: U davrning siyosiy tazyiqlari, urush yillari va cenzura muammolari davrida yashagan, ammo ijoddan to‘xtamagan.

"Mirtemir — So‘z Qalbi"

Janr: Biografik, tarixiy, adabiy portret

Davomiyligi: 20–30 daqiqa (qisqa metrajli film yoki spektakl)

1-SAHNA: Boshlanish

VOZ (Orqa fon ovozi):

"So ‘z — inson yuragining aks-sadosi. Ba’zilarning so ‘zi qalbni titratadi, boshqalar nikiga esa vaqt ham bosh egadi. Mirtemir ana shunday so ‘z egasi edi..."

 **Kadrda:** Oq-qora arxiv lavhalari: Eski Toshkent ko‘chalari, kutubxonalar, o‘quvchilar she’r o‘qiyotgani.

2-SAHNA: Bolalik va Ta'lim

Narrator (VOZ):

"Mirtemir Mirsaidov 1910-yil, Qo‘qon yaqinidagi Jiydali qishlog ‘ida tug ‘ildi. Yoshligidan so‘zga, she’rga mehr qo‘ydi..."

 **Kadrda:** Qishloq manzaralari, kichik bola daftarga bir nima yozayotgan holatda.

Ekranda yozuv:

“Dastlabki she’rlarini 1930-yillarda nashr ettira boshladi.”

3-SAHNA: Ijodiy Parvoz

 **Kadrda:** Yosh Mirtemir o‘z she’rlarini o‘qiyapti. Orqasida “Yosh Leninchi”, “Sharq yulduzi” jurnallari stendi.

VOZ:

"Mirtemir o‘zbek she’riyatiga og‘irlilik, salobat, xalqona badiiy obrazlar olib kirdi. U tarjima ustasi ham edi: Pushkin, Lermontov, Shevchenko, Nizomiy, Firdavsiy asarlarini o‘zbek tiliga mohirlik bilan ko‘chirdi."

4-SAHNA: Urush yillari va ruhiy iztiroblar

 **Kadrda:** Radioda urush xabarları. Shoir qog‘ozga yurakdan chiqqan satrlarni yozmoqda.

Ekranda:

"U urush yillarida xalqning dardini, sog‘inchini, yurak ezg‘ilari va umidlarini so‘zga soldi."

Mirtemir roli:

“Tirik yurak urar edi,
Toki urar yurak...”

5-SAHNA: Shoir hayotining cho‘qqisi va xalq e’tirofi

 **Kadrda:** Shoir xalq orasida, o‘quvchilarga she’r o‘qimoqda. Mukofotlar, faxriy yorliqlar.

VOZ:

"Mirtemir hayoti davomida 'O‘zbekiston xalq shoiri', Davlat mukofoti sovrindori kabi unvonlarga sazovor bo‘ldi. Uning so‘zi xalqning yuragida yashadi."

6-SAHNA: Yakun — Meros

 **Kadrda:** Mirtemir byusti, kutubxonada uning kitobini varaqlayotgan o‘quvchilar, zamonaviy shoirlar uning she’ridan iqtibos keltirmoqda.

VOZ:

"Mirtemir 1978-yilda vafot etdi. Ammo uning so‘zi — tirik. U bugun ham yuraklarga so‘zlaydi..."

Ekranda Mirtemirning mashhur misralari:

"Men she’r yozmadim, yuragimni quydim,
Har satrimga qalbim to‘kildi, quyildi..."

Yakuniy yozuv:

"Mirtemir – o‘zbek adabiyotining zabardast ustuni. Uning ijodi bugungi avlod uchun g‘urur, saboq va ilhom manbai."

MAKTAB KUTUBXONALARIDA O‘TKAZILISHI MUMKIN BO‘LGAN TADBIRLAR TURKUMI TADBIRLAR

1. Adabiy-badiiy kecha:

Tadbir nomi: “*Mirtemir — vatanparvarlik kuychisi*”

Tashkiliy shakli: sahna ko‘rinishlari, she’rxonlik, slayd taqdimot, musiqa

Dastur:

- Mirtemir hayoti haqida qisqacha ma’ruza
- “Ona tilim”, “Qasamyod”, “O‘zbekiston” kabi she’rlar ifodali o‘qilishi
- O‘quvchilar tomonidan Mirtemir she’rlariga tayyorlangan sahna ko‘rinishlari
- Tarjimachilik faoliyati haqida qisqacha so‘z
- “Yodimda qolgan misralar” – o‘quvchilar yodlagan satrlar bahsi

2. Kitob ko‘rgazmasi

Ko‘rgazma mavzusi: “*So‘z san’atkori — Mirtemir*”

Namoyish qilinadigan materiallar:

- Mirtemirning asarlari (“Shu'lalar qo‘ynida”, “She’rlar”, “Tanlangan asarlar”)
- Tarjimon sifatidagi ishlari (Shekspir, Pushkin va b.)
- Fotosuratlar, bio-taqdimotlar, gazeta-jurnallardan parchalar

◆ 3. She’rxonlik tanlovi

Tadbir nomi: “*Mirtemir satrlarini ifodali o‘qiymiz*”

Maqsad: O‘quvchilarning badiiy nutqi va estetik didini rivojlantirish

Baholash mezonlari:

- Yoddan aytish darajasi
- Emotsional ifoda
- Tovush, ohang, mimika

◆ 4. Adabiy viktorina

Nomlanishi: “*Mirtemir haqida nima bilamiz?*”

Savollar yo‘nalishi:

- Hayoti (qachon tug‘ilgan, qayerda o‘qigan, kimlar bilan zamondosh)
- Asarlari (mashhur she’rlari, tarjimalari)
- Adabiyotdagi o‘rni
- Tarjimonlik faoliyati

◆ 5. Insho va esse tanlovi

Mavzular:

- “*Mirtemir — Vatan ovozi*”
- “*Shoir satrlarida milliy g‘urur*”
- “*Ona tilim — ilhomim*” (Mirtemir she’ri asosida)

◆ 6. “Jonli she’r” loyihasi (video shaklda)

Mazmuni: O‘quvchilar Mirtemirning bir she’rini o‘qib, uni video shaklida yozib kutubxona ijtimoiy sahifasiga joylashadi. (masalan, Telegram/Instagram sahifasida Mirtemir30may heshtegi bilan)

◆ 7. “Tarjimada yashagan shoir” suhbat darsi

Tashkiliy shakl: axborot darsi + muhokama

Muhokama qilinadi:

- Mirtemirning tarjima qilgan mualliflari
- Asliyatga sodiqlik masalasi
- Tarjimaning adabiyotdagi o‘rni

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati

1. Миртемир.

Асарлар: 4 жилдлик 2-жилд . Шерлар/ Т. Адабиёт ва санъат нашриёти. – 1981 г- 376 б.

2. Миртемир.

Асарлар: 4 жилдлик 1-жилд . Шерлар/ Т. Адабиёт ва санъат нашриёти. – 1980 г – 384 б.

3. Миртемир замондошлари хотирасида – Т. Адабиёт ва санъат нашриёти, 1982 – 244 б.